



## SHAHAR DIZAYN KODINING YOQOLISHIGA OLIB KELAYOTGAN OMILLAR

*Umarkulova Shaxodat Mashrab qizi*

*Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O'zbekiston.*

*shaxodatumarkulova@mail.ru*

*G'ayratov Alimardon Abdusamat o'g'li*

*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoritilayotgan mavzu yurtimizda dizayn kodni buzilishiga olib kelayotgan muammolarni yoritishga qaratilgan bo'lib, ularning yuzaga kelish sabablari, oqibatlari hamda ularning amaliy yechimlari yuzasidan innovatsion taklif loyihalarni taqdim etadi. Shu bilan birga ushbu masala yuzasidan fikir mulohazalarini ko'rib chiqadi, hamda horij mamlakatlarida ko'rيلayotgan chora tadbirlarni ko'rib chiqadi. Shaxar Dizayn kodini saqlab qolish uchun amalga oshirilayotgan loyihiilar, ularning samarali natijalari va bizning yurtimizda ham ushbu prinsiplarni qo'llash chora tadbirlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Dizayn kod, Grand mir hotel, Milliy bog', Toshkent city, Magic city, reklama, jamoat binolari, hiyobon, san'at, arxitektura.

**Аннотация:** Тема, обсуждаемая в данной статье, направлена на освещение проблем, которые приводят к нарушениям норм проектирования в нашей стране, и представляет проекты инновационных предложений относительно их причин, последствий и их практических решений. При этом он рассмотрит мнения по этому вопросу, а также меры, принимаемые в зарубежных странах. Будут обсуждены проекты, реализованные в целях сохранения Градостроительного кодекса, их эффективные результаты и меры по применению этих принципов в нашей стране.

**Ключевые слова:** Дизайн код, Grand mir hotel, Национальный парк, Toshkent city, Magic city, реклама, общественные здания, аллея, искусство, архитектура.

**Abstract:** The topic discussed in this paper aims to highlight the problems that lead to violations of design standards in our country and presents drafts of innovative proposals regarding their causes, consequences and their practical solutions. In doing so, it will examine the views on this issue as well as measures taken in foreign countries. Projects implemented to preserve the Town Planning Code, their effective results and measures to apply these principles in our country will be discussed.

**Key words:** Design code, Grand mir hotel, National Park, Tashkent city, Magic city, advertising, public buildings, alley, art, architecture.

**Kirish.** Ushbu maqolada yurtimizda mavjud bo'lgan dizayn kod muammolari haqida so'z yuritiladi. Hozirgi kunda ko'pgina madaniya me'ros obektlarimiz




himoya qilinish o'rniga vayron qilinmoqda, ularni rekonstruksiya qilib asl o'zligi tarixiyligini aks ettirib turuvchi elementlar zamonaviy ko'rinishga olib kelishmoqda. Himoya qilish uchun albatta hamma uchun taniqli bo'lgan tarixiy, turistlar ko'p tashrif buyiradigan joy, imorat, bino bo'lishi shart emas. Kichik bo'sada o'zida yurtimiz tarixini aks ettirsa, milliy qadriyatlarimizni o'z ichida jamlasa, usha obekt yoki elementni ko'z qorachig'imizday asrashimiz lozim. Imkon qadar tarixiy binolarimizni saqlab, o'z holida asrab qolishimiz va kelgusi avlodlarga taqdim etishimiz lozim. Bundan tashqari tarixiy, o'zbek madaniyatini aks ettiruvchi ornamentlarimizni hozirgi kunning turli soxalarida tadbiq etish madaniyatini shakillantirishimiz kerak deb hisoblayman.

## ASOSIY QISM



1-rasm. Toshkentda joylashgan "Rossiya" nomi bilan tanilgan, hozirgi kunda esa "Grand Mir Hotel" nomi bilan ataladigan mehmonhona.

Ushbu rasmda siz yurtnimizning tarixiy binolar namunasi bo'lgan Rossiya mehmonxonasini ko'rishingiz mumkin. Yillar o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan. Yaqin yillar davomida ushbu bino rekanstruksiya qilinib qayta foydalanish uchun topshirilgan. Ushbu bino loyihasida loyihibachilarning muvafaqqiyatli bajarilgan ish namunasi deb aystsak mubolag'a bo'lmaydi. Binoni tashqi fasad qismi zamonaviy tus olib uning nomi o'zgartirilgan. Lekin nomi o'zgargani bilan yurtdoshlarimiz uni avvalgi nomi bilan atashdan to'xtashgani yo'q.



2-rasm. Buzib tashlangan "Kinohilar uyi" binosi.

Navbatdagi bino esa tarix zarbalariga dosh bera olmagan binolardan biri desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki uni 2017- yili buzish ishlari bo'slangan hamda yer



bilan bitta bo'lgan. Sababi esa hozirgi vujudga kelgan "Toshkent city" majmuasining qurilish zonasiga tushib qo'lgan edi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay bu binoning qaysidir ma'noda qurban bo'lishi zoye ketgani yo'q. yurtimizda juda zamonaviy, beqiyos turar-joy majmualari, ko'ngil ochar bo'g va yana bir qancha jamoat binolari qad ko'tardi. Shunday bo'sada loyihachilarimiz ushbu bino asosida taklif loyihalar ham yaratishlari mumkin edi. Bunday buzib tashlangan binolar esa afsuski juda ko'p. har bir bino o'zining tarixiga ega bo'ladi. Undagi qurilish materiallari, binoda ishlatilgan qurilish texnologiyalari hamda bino fasadini bo'yitib turuvchi elementlar o'sha davr atmosferasini o'zida aks ettirib turadi. Shu sababli ham loyihachilarimiz imkon qadar tarixiy binolarni inobatga olgan holda yangi loyihalar yaratishlari maqsadga muvofiq deb hisoblayman.



3-rasm. "Toshkent city"

Yuqoridagi sur'atlarda esa buzib tashlangan bino o'rniga bunyod etilgan Toshkent city loyihasini ko'rishingiz mumkin. Toshkent-sitining 80 hektarli hududi 8ta lotga bo'linadi. U yerda biznes-markazlar, savdo majmualari, mehmonxonalar, ofislar, Kongress-xoll, ko'rgazma zallari, Brodvey ko'chalari, turar-joylar, ijtimoiy soha obyektlari, maydoni 20 hektarga yaqin bo'lgan yerda bog' tashkil etilib, ichida ikki hektarlik sun'iy ko'l va favvoralar bunyod etilgan. Bugungi kunda "Shahar ichidagi shahar" deya e'tirof etilayotgan Toshkent City bo'yicha loyihalarni O'zbekiston ishbilarmonlari Germaniya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning investorlari bilan hamkorlikda amalga oshirildi.



4- rasm. Komsomolskoye ko'lining tantanali ochilishi. 1939 yil Toshkent.



Hozirgi Milliy bog'ning vujudga kelishi. Bundan ko'p yillar avval 700 dan ortiq bola hasharga – o'z shahri uchun bog'-ko'l barpo etish uchun yo'l oldi. Bir yarim oy ichida ko'lning poydevori tayyor bo'lди va 1939 yil 15 iyunda unga suv quyildi, komsomolchilar tomonidan qurilganligi sababli unga shunday nom berildi. Ko'l bog'ining tantanali ochilishi 1939 yil 3 iyulda bo'lib o'tdi. Bu ko'l uzoq yillar davomida yurtimiz mehmonlari va yurtdoshlarimizning mazmunli hordiq olishlari uchun hizmat qildi. Iqlim o'zgarishining oqibatida va hamda ma'sul shaxslarning be etiborliklari tufayli bu ko'l 2021- yilga kelib buntunlay qurib qoldi.



5-rasm. Milliy bog'ining ko'lining 2019-2021 yilgi suv sathi korinishlari.  
Hamda hozirgi kundagi ko'rinishi.

Buni ushbu rasmlarda ham ko'rishingiz mumkin. Ushbu ko'l batamom quriganidan song uni qayta tiklash ishlari boshlanadi va bog'ning barcha qisimlarida rekonstruksiya ishlari olib borilib bo'g' qaytadan bunyod etiladi. Hozirgi kunda esa ushbu bo'g' "Milliy bo'g'" nomi bilan ataladi. Unda bir qancha adiblar hotirasiga bag'ishlangan haykallar, dam olish zonalari, va ko'pgina rekriatsion zonalarga bo'lingan.



6-rasm. Hozirhi "Magic City" bog'ining evolyutsiyasi.

Yuqoridagi rasmlarda siz bitta joyning turli yillarda qanday ko'rinishga ega bo'lganligini ko'rishingiz mumkin. Birinchida turgan rasmida 1939- yillarda bunyod etilgan Komsomol ko'li yonida joylashgan bog' uchun kirish arkalarini ko'rishingiz mumkin. Bir qancha yillar o'tgandan so'ng esa bu arkalar buzib tashlanadi va Mustaqillik yillarida o'zida milliy ornamentlarimizni aks ettirgan arkalar bunyod etiladi. Bu qanchalar maftunkor loyiha bo'lishiga qaramay u ham ko'p o'tmay buzib tashlanadi. 2021- yil esa ushbu inshoat o'rnida "Magic city" ko'ngil ochar majmuasi qad ko'taradi. Qisqa yillar ichida bir necha marotaba buzib tashlab qayta



loyihalangan bo'lishiga qaramay yurtimiz fuqarolari ushbu ko'ngil ochar majmuani mammuniyat ila qarshi oldilar. Lekin tarix zarvaqalarichi? Bino va inshoatlarini qisqa yillar mobaynida bir necha marotaba buzib qaytadan qurish qanchar tog'ri. Bino yoki inshoatlarni qurish katta harajat mablag' talab etadi va shu boisdan ham uzoq yillarga dosh bera oladigan qilib loyihalanishi kerak. Bundan tashqari bunday tez-tez o'zgartirishlar kiritish ushbu hududning ma'lum bir dizayn kodi yo'qligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda qaysi investor yoki tashkilotlarni qo'li baland kelsa, ushbu hududda hoxlagan dizayndagi loyihalarni amalga oshirayotgani achinarli hol albatta. Yurtimizda yangi loyihalar qilinayotgan yomon emas albatta. Lekin ularning aksariyat qismi horij mamlakatlar andozalarini ko'chirib yurtimizda tog'ridan to'ri loyihalashayotgani achinarli hol. Ular qilayotgan loyiha ushbu hududga qanchalar mos kelishi yoki kelmasligi ularga muhummasdek goyo. Yurtimizning qayeriga qaramaylik ko'p qavatli zamonaviy binolar qad ko'tarib bormoqda. Lekin bunday zamonaviy binolar bizni yurtimizga qanchalik kerak? Bunday zamonaviy binolar ko'paygan sari yurtimizning asl qiyofasini yoqotib bormayapmizmi? Shuning uchun ham har bir shaxarning dizayn kodi bo'lishi lozim. Bu na faqat katta hajmli binolarda aks etadi. Balki har bir kichik arxitektura ob'eklarda ham namoyon bo'lishi kerak.

Yuqorida aytganimdek dizayn kod faqat katta hajmli ob'ektlarda namoyon bo'lmaydi. U har bir dekorativ elementlarda kattayu kichik arxitekturaviy elementlarda o'zini namoyish etadi. Navbatdagi e'tiboringizni qaratmoqchi bo'lган ma'lumotim 80-90 yillar arxitekturasida keng qo'llanilgan "Mazayka"lar. Uzoq yillar davomida ular yurtimiz binolari ko'runga ko'rka qoshib kelayotgani hech kimga sir emas. Ularning har biri o'zgacha yashirin go'zallikni, chuqr o'yangan ma'noga ega va bir binoga ishlangan san'at namunasi boshqa hech bir binoda takrorlanmaydi.



7-rasm. Yurtimizning ba'zi jamoat binolari hamda asosan ko'p qavatli binolariga ishlangan takrorlanmas mazayka san'at namunalarini.

Shunday bo'lishiga qaramay noma'lum sabablarga ko'ra binolarga ishlangan mazaykalarni yo'q qilishga urinishmoqdalar. Bunday yoqotishlarga yo'l qoyilaversa yurtimiz o'z qiyofasini qisqa muddat ichida yoqotib qo'yishi hech gap emas. O'tgan asrning san'at namunalarini barbod qilishni o'rniga ularni zamon talabiga moslab tadbiq etish yo'llarini topish lozim deb hisoblayman. Voyaga yetb kelayotgan yosh



avlodga milliy qadriyatlarimizga, milliy ornamentlarimizga umumam barcha milliy tarixiy narsalarimizga hurmat, asrab- avaylash madaniyatini singdirishimiz lozim. Buning uchun quyidagi ko'rinishlarda yurtimizning diqqatga sazovor joylarida mazaykalardan ishlangan san'at namunalarini talqin etish maqsadga muvofiq. Bunda inson ham madaniy ham ruhan hordiq oladi, san 'at asarlaridan bahramand bo'ladi, fikr mulohaza qilib bu asarlarni muhokama qilib vaqtini maroqli o'tqazadi. Yon atrofni bir biridan qiziqarli san'at namunalai bilan be'zatsak yosh avlod internet olamidan chiqib atrofdagi maftunkor manzarani ko'ra boshlaydi.



8-rasm. Mazaykalar hiyobonlarda dekorativ elementlar sifatida joylansa qanday ko'rinar edi.

Hozirgi kunda esa ko'chalarimiz, hiyobonlarimiz, umumam barcha binolarimiz reklamalar bilan to'lgan. Bu reklamalar ko'pligidan binoni dizayni uyoqda tursin, uni qanday binoligini ham bilib bo'lmaydi. Bir binoni o'zida bino uchun tegishli bo'limgan o'nlab reklamalarni ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda birinchi tashqi reklama 1996-yilda paydo bo'lgan. U tezda poytaxt ko'chalarini to'ldirdi. Avvallari qo'l mehnati yordamida turli reklamalar rassomlar tomonidan ishlangan bo'lsa, keyinchalik bu ishni texnika vositalari bajara boshladi. Hozirgi kunga kelib esa video ekranlar orqali namoyish etiladigan video reklamalar avj olmoqda. Reklama shu darajada avj olib ketdiki har qadamda yuzlab turli hil reklalarni ko'rishingiz mumkin. Eng achinarlisi esa shuki bu reklamalar ko'paygani sari barcha binolarni butkul qoplab olmoqda. U bino savdo markaz binosi bo'lsa tushunsa bo'ladi, ammo tarixiy binolarni ham egallab olmoqda. Binoning fasad elementlari, unda ishlangan turli dekorativ elementlar, binoning asl qiyofasini aks ettiruvchi elementlar bahaybat reklama plakatlari ostida qolib ketmoqda. Bularni barchasiga chek qoymasak shahrimiz reklamalar shahriga aylanib bormoqda. Buning uchun esa shaxrimiz uchun yagona mukammal dizayn kodini ishlab chiqish lozim.



9-rasm. Binolarni reklalar egallab olayotganini aks ettiruvchi foto lavhalar.

Shaharlarimizda juda ko'p reklamalar, turli hil kerakemas e'londalar, turli konstruksiyalari shu qadar avj olganki ko'chaning umumiy dizayn kodi umuman inobatga olinmayapti. Kim nima hoxlasa shuni qilayotganga o'xshaydi go'yo. Buning isbotini esa quyidagi rasmlarda ko'rishingiz mumkin.



10-rasm. "Frunza savdo" binosi 1930-1936 yillar hamda hozirgi kundagi ko'rinishi.

Rasmdagi "Frunza savdo" binosi 1930-1936 yillarda qurilgan bo'lib bugungi kunda madaniy me'ros ob'yekti hisoblanadi. Me'morchiликimiz nufuziga katta taxdid solayotgan tashqi reklamalarni tartibga solish bugungi kunning dolzarb masala ekanligi binoning zamonaviy ko'rinishi aytib turibdi. Har bir hudud va binoga mos reklama va belgilarni hamda qoidalalarini ishlab chiqish va uni qo'llash uchun dizayn kod talablarini tezroq amaliyotga joriy etish kerak.



Rassiyada shaxar dizayn kodini ta'minlash chora tadbirlari. Haddan ziyod ko'p reklamalarni yo'q qilish. Mayjudlarini bino fasadi bilan yaxlit bir kompazitsiya yokida koloritda namoyon etish.

#### 10-rasm. Rassiyada shaxar dizayn kodini ta'minlash maqsadidan reklamalardan ozod etilgan binolar.

Rassiyada shaxar dizayn kodini ta'minlash chora tadbirlari. Haddan ziyod ko'p reklamalarni yo'q qilish. Mayjudlarini bino fasadi bilan yaxlit bir kompazitsiya yokida koloritda namoyon etish. Qo'shi mamlakatlar allaqachon dizayn kod masalalari bo'yicha izlanishlar olib borib, ularni amaliyotga tadbiq etishmoqda. Reklamalar bilan kurashish, ularni butunlay yo'q qilish kerak degani emas. Reklama tadbirkorlar o'z biznesini yuritishi, uni ommaga tanitishi uchun kerak. Bu iqtisodimizning negizi. Ammo faqat buning uchun ham butun boshli shaxar dizayn kodini, o'zining asl sof qiyofasini yo'qqa chiqarish yaramaydi. Yuqorida Rossiya davlatida amalga oshirilgan reklamasiz binolarni ko'rib o'tdik. Ular maksimal darajada reklama 2-darajali element sifatida ko'rishimiz mumkin.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan malumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, har bir binoda reklamadan foydalanish mumkin, faqat buni binoni fasad qismiga imkon qadar ta'siri kam bo'lган holatda amalga oshirish lozim. Avvalo, reklama binoni rang koloritidan chiqib ketmasligi lozim, bundan tashqari juda katta hech qanday standartlarga tog'ri kelmaydigan yozuvlar, sur'atlar, yasama jihozlardan voz kechish lozim. Endi savol tug'ilishi tabiiy hol, reklama o'ziga e'tibor tortmasa reklama bo'lmay qoladiku deyishingiz mumkin. Ha to'g'ri, lekin hozir biz innovatsion texnologiyalar asrida yashamoqdamiz. O'z biznesimizni reklama qilish mijoz yig'ish uchun turli internet saytlari mavjud. Bu bino fasadiga katta qilib plakat osib qoyganingizdan ancha yaxshiroq. Binoga o'rnatilgan plakatingizni faqat shu hududda iste'qomat qiluvchilar hamda onda-sonda o'tib qaytuvchilar ko'rishi mumkin. Internet saytlari, televideniya orqali qilingan reklamani esa hoxlasa-hoxlamasa 10000 minglab odamlar ko'radi. Bundan tashqari biznesni rivojlantirishning yana bir talay usullari mavjud. Xulosa qilib aytganda binoga mos tushmaydigan reklamalardan halos bo'lish uchun hech qanday to'siq yo'q.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”
2. QMQ 2.08. 02-09. “Jamoat binolari va inshootlari”.
3. “Arxitekturaviy loyihalash asoslari” X. Po ‘latovning umumiy tahriri ostida «NOSHIR» TOSHKENT – 2010
4. Sh. Abdullayev “Arxitektura tarixi” Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2018
5. Umidjon Fayziyev telegram kanali manbalari <https://t.me/UmidUrbanist>
6. <https://www.liveinternet.ru/users/stewardess0202/post322513960/>
7. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/09/25/outdoor-advertising/>